

Abdullayeva Difuza Abdujalilovna

Buxoro davlat universiteti

arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktor (PhD)

## DINIY ME'MORIY OBIDA– MASJIDLARNING TA'MIRLANISHI TARIXIY JARAYON SIFATIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada diniy me'moriy obida hisoblanadigan Buxoro shahridagi Namozgoh, Masjidi Kalon, Bolohovuz, Masjidi Baland, Mag'oki Attor singari masjid binolarining ta'mirlanishi va qayta tiklash ishlari, ularni muhofaza qilish, saqlash bilan bog'liq jarayonlar to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, me'moriy yodgorliklardan foydalanish hamda ularning ijaradorlik masalalari kabi jihatlar misolida mavjud hokimiyatning munosabati ham tahlil qilib boriladi.

**Kalit so'zlar:** Namozgoh, Masjidi Kalon, Bolohovuz, Masjidi Baland, Mag'oki Attor, gumbaz, deformatsiya, Buxkomstaris, ta'mirlash, qayta tiklash, muhofaza, restavratsiya, peshtoq, Uzkomstaris, obodonlashtirish.

### РЕЛИГИОЗНЫЙ ПАМЯТНИК АРХИТЕКТУРЫ - РЕКОНСТРУКЦИЯ МЕЧЕТЕЙ КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС

**Аннотация.** в данной статье отражены ремонтно-реставрационные работы зданий мечети, таких как молитвенный зал в Бухаре, мечети Калон, Болуховуз, мечеть хай, Магоки Аттор, которые считаются религиозной архитектурной достопримечательностью, процессы, связанные с их охраной, сохранением. Также анализируется отношение существующих властей на примере таких аспектов, как использование памятников архитектуры и вопросы их аренды.

**Ключевые слова:** молитвенный зал, мечеть Калон, Болуховуз, мечеть хай, Магоки Аттор, Купол, деформация, Бухкомстарис, ремонт, реставрация, консервация, восстановление реставрационных работ, пьедестал, Узкомстарис, ландшафтный дизайн.

### RELIGIOUS ARCHITECTURAL MONUMENT - RECONSTRUCTION OF MOSQUES AS A HISTORICAL PROCESS

**Annotation.** This article reflects the repair and restoration work of mosque buildings, such as the prayer hall in Bukhara, Kalon mosque, Bolokhovuz Mosque, Hai Mosque, Magoki Attor, which are considered religious architectural landmarks, processes related to their protection and preservation. The attitude of the existing authorities is also analyzed using the example of such aspects as the use of architectural monuments and their rental issues.

**Keywords:** prayer hall, Kalon Mosque, Bolokhovuz, hai Mosque, Magoki Attor, Dome, deformation, Bukhkomstaris, repair, restoration, conservation, restoration of restoration works, pedestal, Narrowstaris, landscape design.

**Kirish.** Ayon bo'lgan tarixiy haqiqatki, sovet davridagi hukmron mafkuraning har qanday din va diniy e'tiqodga murosasiz siyosati yurtimizdagi diniy muassasalarga ham salbiy illat maskani sifatida qarashni yuzaga keltirdi. O'sha davr ommaviy axborot vositalarida tez-tez uchraydigan "Diniy qadamjolar–xurofot o'chog'i", "Islom dini ta'siriga qarshi kommunistik tarbiyaning ahamiyati", "Tarixiy yodgorliklarga nisbatan kommunistik dunyoqarash" singari shiorlar bilan yuritilgan tashviqotlar oqibatida islom me'morchiligining ko'pgina noyob namunalaridan voz kechildi. Qolgan qismi esa kommunistik mafkuraning dahriylik targ'iboti ostida mazmun-mohiyatidan begonalashtirildi. Shunga qaramay, mas'ul tashkilot mutasaddilari, ilmiy jamoatchilik, qolaversa, mahalliy o'lkashunos olimlar va usta-me'morlarning sa'y-harakati

34 bilan Buxorodagi me'moriy yodgorliklar qisman saqlab qolindi. Tarixiy qiymati va ahamiyati asoslanib, davlat ro'yxatiga kiritishga erishilgan masjid, maqbara va xonaqohlardagina bir qadar ta'mirlash ishlari olib borilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** XX asrning 20-80-yillarida Buxoro me'moriy obidalari –masjidlarning ta'mirlanishi va ushbu jarayon bilan bog'liq masalalarni o'rganishda arxiv hujjatlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy arxivining Turkkomstaris va Sredazkomstaris –R-394-fondning 266, 309 – yig'majildlarida hamda Uzkomstaris – 2296-fondning 9, 61, 46, 122, 144, 245, 360, 395- yig'majildlarida, Buxoro VDA 836-fondning 9, 17-yig'majildlarida Diniy me'moriy obidalari – masjidlardagi qayta tiklash va ta'mirlash amaliyoti tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud. Ushbu manbalarning tahlili Buxoro tarixiy yodgorliklarining muhofazasi va ularni ta'mirlash, qayta tiklash ishlariga munosabat masalasi aks etganligini ko'rsatdi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. XX asrning 20-80-yillarida Buxoro me'moriy obidalari – masjidlarning ta'mirlanishi bilan bog'liq masalalar mazkur usullar yordamida yoritildi.

**Natija va muhokamalar.** Ta'mirlash ishlariga mas'ul mutasaddi tashkilot va muassasalarning XX asr 20-80-yillari mobaynida masjidlar ta'miri bilan bog'liq faoliyati tadqiq etilganda sohaga doir bir qator ilmiy ma'lumotlar aniqlandi. Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish O'rta Osiyo qo'mitasi (Sredazkomstaris) tomonidan 1925-yil 4-mayda Namozgoh masjidining, 1927-yil mart oyida Masjidi Kalon, Bolohovuz, Masjidi Baland, Mag'oki Attor masjidlarining ro'yxatga olinishi ularga sovet hukumati diniy siyosati ta'siridan qisman omon qolish imkonini yaratdi [1]. Bu, masjidlardan voz kechishdan ko'ra ulardan xo'jalik inshooti sifatida foydalanish zarurati bilan xarakterlidir. Dastlab, 1928-yilda Namozgoh masjidining g'arbiy devorida qayta tiklash va katta gumbaz qismida ta'mirlash ishlari bajarilgan. Jarayon bilan bog'liq hujjatlardan smetada belgilangan ishlar ko'lamining yakunlanmay qolganligi ma'lum bo'ldi. Katta ehtimol bilan, bu moliyaviy sabablar bilan bog'liq bo'lgan. 1929-yilda esa faqatgina texnik xavfsizlikni ta'minlash maqsadidagi ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, masjid devorlari deformatsiyasi va qulashini oldini olish uchun po'lat mayoqlar o'rnatilgan.

1930-yilga kelib arxitektor N.M.Bachinskiy ishtirokida Masjidi Kalonning tom qismidagi yoriqlar ta'mirlanib, devorining qulagan tomoniga 2 ta kontrfors (g'isht tirgovuch) qo'yiladi. Buxkomstarisning xarajatlar smetasiga asoslanib, Masjidi Kalonning ta'miri uchun 1930-1931-yillarda 21700 rubl, 1932-yilda 25000 rubl ajratilganligi ma'lum [2]. Mazkur yilning ta'miroldi hujjatlarida masjidning qariyb o'ttizdan ortiq gumbazlari yorilib, yiqilganligi qayd etilgan. 1933-yil 5-iyulda esa 9 turdagi ishlar ko'lamidan iborat 8023 rubl 43 tiyin miqdorida ta'mir ishlari amalga oshirilgan.

Namozgoh masjidining tom hamda ichki va tashqi tomon darz ketgan qismlaridagi ta'mir ishlari ham 1932-yilda arxitektor N.M.Bachinskiy rahbarligida olib borilgan[3]. Buxkomstarisning 1933-yil 15-noyabr sanasiga oid hisobot hujjatlari Namozgoh masjidini ta'mirlashga 11.000 rubl miqdordagi mablag' yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bunda asosan yodgorlikning buzilib ketishini oldini olishga qaratilgan zaruriy ta'mir ishlari bajarilgan. Tahlillardan, jarayon bir qancha muammo va kamchiliklardan xoli bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Qurilish xomashyolari xususan, alebstrning kam miqdorda etkazilganligi va ishchi kuchini jalb etish bilan bog'liq muammolar shular jumlasidandir.

Buxkomstarisning 1934-ta'mir yiliga oid hisobotlarida ushbu yilning Namozgoh hamda Mag'oki Attor masjidlari ta'mirotida nisbatan samarali bo'lganligi ta'kidlanadi[4]. Bu arxitektor N.M.Bachinskiy va texnik V.N.Ivanovlar mas'ulligida Namozgoh masjidi binosining shimoli-sharqiy devoridan ajralish xavfi mavjud ravoq tepa qismidagi g'ishtlar olinib uchta temir bog'lama bilan mustahkamlanishida, shuningdek, devorlar pastki qismidan tozalangan eski g'isht o'rinlari to'ldirilganligida, qolaversa, masjid mehrobi bilan birga qadimiy devorining shuvoqlangan ornamentli qismi tozalanib, tom hamda gumbaz qismida mustahkamlash ishlari olib borilganligida namoyon bo'ladi.

Mag'oki Attor masjida 1934-yilda olib borilgan tekshiruv-ko'rik jarayonida janubiy peshtoq arkining qulab tushish xavfi, shimoliy devorning kuchli deformatsiyalashuvi, tom qismini

ta'mirlash zarurati aniqlanadi. Natijada, arxitektor N.M.Bachinskiy rahbarligida masjidida ta'mir ishlari boshlangan[5]. Bunda masjid gumbazining tashqi g'isht qoplamasi va oldingi shuvoqlangan qismi tozalanib, shimoliy, g'arbiy hamda janubiy devorlarida ta'mir ishlari bajarilgan. Masjid derazalariga esa ganch panjaralar o'rnatiladi.

Boshqa turdagi me'moriy obidalar kabi masjidlardan ham ijara tizimida foydalanib kelinadi. Maxsus muassasa va tashkilotlar faoliyati o'rganilganda, masjidlar ijarasi masalasida tegishli tartib va qoidalar asosida shartnomalar imzolanganligi ma'lum bo'ldi. Xususan, 1934-yilda Masjidi Kalon binosining Xo'jayev Bolta, Bahromov Aslon, Alimov Abbos, G'afurov Baqo, Qurbonov Juma, Muhammedov Nizom kabi shaxslarga muayyan narxlarda ijaraga berilganligi haqida ma'lumotlar mavjud[6]. Tuzilgan shartnomalarda yodgorlikni saqlash va ta'mirlash tartiblari, mas'uliyati alohida bandlarda qat'iy belgilanmasin, bunga deyarli amal qilinmaganligi kuzatiladi. Oqibatda obidalarining abgor ahvolga tushishi tezlashib borgan.

Uzkomstaris raisi I.Skorlikovning O'zbekiston SSR Fan qo'mitasi nomiga 1936-yil 5-sentabrda yo'llagan hisobotida Masjidi Kalon taqdiri masalasi ko'rilganligiga guvoh bo'lamiz: *"Masjidi Kalon "Заготзерно" tashkiloti foydalanuvida bo'lib, bug'doy ombori vazifasini bajarib kelmoqda. Yillar davomida masjidida bug'doy saqlanishi sababli kemiruvchilar ko'payib ketgan. Natijada bino devorlari, poydevor va ustunlarga zarar etmoqda. Qolaversa, bug'doyning ikki-uch metr balandlikda saqlanishi ham devorlarning shikastlanishiga olib kelmoqda[7].*

I.Skorlikov hisoboti asosida shu yilning 13-sentabrida O'zbekiston SSR Fan qo'mitasi raisi Y.A.Eyngori tomonidan O'zbekiston SSR XKS raisi F.Xo'jayev nomiga yodgorlik *"Заготзерно"* tashkiloti foydalanuvidan bo'shatilishi va hech bir idoraning ombori sifatida foydalanilmasligi so'ralgan murojaat yo'llangan. Masjidi Kalon foydalanuvi bilan bog'liq hujjatlarni o'rganish jarayonida, aslida *"Заготзерно"* tashkiloti ijara shartnomasiga muvofiq, masjidni 1936-yil 1-yanvarda bo'shatib berish majburiyatini olganligi ma'lum bo'ldi. Ammo ko'rinib turibdiki, bunga rioya etilmagan. Yodgorlik foydalanuvidagi bu kabi qoidabuzarliklar deyarli odatiy hol bo'lganligini Buxkomstaris rais o'rinbosari S.Kabanovning yuqori tashkilotlarga yo'llagan yozma murojaatlarining tahlili ham tasdiqlaydi. Ma'lum bo'lishicha, 1939-yilda faqat madaniy ehtiyojlarda foydalanish maqsadida Buxoro shahar soveti ixtiyoriga o'tkazilgan Masjidi Kalon shahar savdo-sotiq idorasi (*Горторг*)ga ijaraga beriladi. Buxkomstaris vakilining Uzkomstaris, Buxoro shahar soveti hamda shahar savdo-sotiq idorasiga bildirgan noroziliklari natija bermaganligi achinarlidir. 1947-yilga kelib Buxoro shahar savdo-sotiq idorasi Masjidi Kalon uchun yillik 150.000 rubl miqdorida ijara to'lovini amalga oshirgan.

Masjidi Kalonning muhofaza hududi bilan bog'liq masala yuzasidan amalga oshirilgan idoralararo yozishmalar yodgorlik saqlovidagi tadbirlar ham talab doirasida bo'lmaganligini ko'rsatadi. Muhofaza tartibiga muvofiq yodgorliklar atrofidagi kamida o'n metrlik maydonda hech bir qurilish ishlari olib bormaslik shartligi belgilanganligiga qaramay, Masjidi Kalon g'arbiy devori yaqinida 1949- yil boshida shahar Dehqon bozoriga qarashli bir qancha kichik do'konlar quriladi [8]. Bu borada Buxorodagi hududiy vakil R.L.Yusupov tomonidan Dehqon bozori direktori Ikromov (ismi hujjatda ko'rsatilmagan – D.A.)ga berilgan ogohlantirishlar natija bermagan. Arxitektura ishlari boshqarmasi rahbari V.A.Jahongirov, Yodgorliklar muhofazasi bo'limi boshlig'i V.N.Astraxanskiy, Buxoro viloyat ijroiya qo'mitasi raisi Abdujabborovlarning aralashuvlaridan keyingina qurilishlar to'xtatilgan.

Ijara tizimidagi muammolar Bolohovuz masjidini ham chetlab o'tmadi. 1937-yil 11-sentabrda *"Qandolat-savdo"* (*"Кондитерсбыт"*) tashkilotiga ijaraga berilgan masjidida Buxkomstaris tomonidan amalga oshirilgan taftish-nazorat xulosalarida yodgorlikni saqlash qoidalarining buzilganligi qayd etilgan[9]. Ayniqsa, masjid ayvoniga brezent matosi tortilishi oqibatida korniz qismiga katta zarar etkaziladi. Buxkomstaris murojaati natijasida 1938-yilda ta'mirlash ishlari ko'lami tuzib chiqilgan. Shunga qaramay, 1939-yil 17-mayda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Fan qo'mitasining 8-sonli yig'ilishida Masjidi Kalon hamda Bolohovuz masjidlari Buxoro shahar sovetiga *"madaniy ehtiyojlarda foydalanish uchun"* topshiriladi. Endilikda, bu masjidlardan foydalanish huquqi shahar soveti *"xohish va irodasi"*ga bog'liq bo'ldi.

1954-yilga doir ma'lumotlar, Buxoroda sayyohlarning asosiy ko'rsatmali marshrutida jami o'n beshta me'moriy yodgorlik joylashganligidan guvohlik beradi. Ular orasida Masjidi Kalon,

36 Bolohovuz, Mag'oki Attor masjidlarining ham borligi ta'mirlash va qayta tiklash ishlariga sezilarli ta'sir etdi. Joriy yilning o'zidayoq davlat budjeti hisobidan 100.000 rubl mablag' ajratilib Masjidi Kalon, 30.000 rubl yuzasidan Bolohovuz masjidlarida restavratsiya amaliyoti bajarilganligi buning yorqin dalilidir [10]. 1954-yil 16-noyabrda Masjidi Kalonda faqatgina tozalash va obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash joizki, sayyohlik yo'nalishidagi yodgorliklarning 1956-1960-yillarda ta'mirlash rejasini ishlab chiqish uchun o'tkazilgan kuzatuv-ko'rik natijasida, Bolohovuz va Masjidi Kalon avariya holatida, Mag'oki Attor masjidi esa qoniqarsiz ahvolda ekanligi aniqlangan. Bu ma'lumotlar olib borilgan ta'mir ishlari sifatsiz bo'lganligi, yoki zaruriy ishlar ko'lami to'liq bajarilmaganligini asoslaydi.

Buxoro masjidlarining ta'miri 70-yillarda ham davom ettirildi. 1970-yili Masjidi Kalonda tashqi devor, asosiy kiraverishdagi zinalar, peshtoq qismi ta'mirlandi. 1971-yilda ayvon gumbazlarida qayta tiklash ishlari olib borilishiga 45.700 rubl ajratilgan bo'lsa, 1973-ta'mir yilida gumbaz qoplamalari va ayvon qismi ta'mirlanishi uchun 33.000 rubl mablag' ajratiladi[11]. Buxoro MITICHU tomonidan Bolohovuz masjidida Tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyatining moliyaviy ta'minoti hamda buyurtmasi asosida 1971-1975-yillarda ta'mirlash ishlari olib borilgan. Bunda asosan masjidning tom va ichki(interyer) qism bezaklari qayta tiklangan.

**Xulosa.** O'zbekiston SSR Vazirlar kengashining 1978-yil 23-avgustdagi 510-sonli "Abu Ali Ibn Sinoning 1000 yillik yubileyini nishonlashga tayyorgarlik to'g'risida"gi qarori ijrosi sifatida Buxorodagi davlat muhofazasida bo'lgan jami 329 me'moriy yodgorliklardan 40 tasi ta'mirlandi. Shu sabab, Masjidi Kalon va Bolohovuz masjidlaridagi ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilgan.

Targ'ibot-tashviqot organi bo'lgan "Butunittifoq xudosizlar uyushmasi"ning diniy e'tiqod maskanlari faoliyatiga qarshi qaratilgan tadbirlari, xudosizlik (ateistik) siyosati doirasida qabul qilingan O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1969-yil 7-fevralda "Diniy masalalar bilan bog'liq huquqiy tartiblarning ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish to'g'risida"gi qarori, yoki O'zbekiston SSR Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi tomonidan 1986-yil 18-avgustda qabul qilingan "Islom ta'siriga qarshi kurash to'g'risida"gi kabi qarorlarning ijrosi diniy marosim inshooti sifatida masjidlarining davlat muhofazasidan chiqarilishida hamda muqaddas joylarga ziyorat qilishni cheklash ishlarini kuchaytirishda namoyon bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda - O'zbekiston MA), R-394-fond, 1-ro'yxat, 266-yig'majild, 45-varaq.
2. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'majild, 52-varaq.
3. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 61-yig'majild, 22-varaq.
4. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 122-yig'majild, 67-70-varaqlar.
5. Шишкин В.А. Мечеть Магакки-Аттари в Бухаре / Труды Института истории и археологии. Материалы по археологии Узбекистана. – Т I. – Ташкент: Изд.АН УзССР, 1948. – С.8.
6. Buxoro VDA, 836-fond, 1-ro'yxat, 17-yig'majild, 198, 293-varaqlar.
7. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 144-yig'majild, 3-5-varaqlar.
8. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 360-yig'majild, 162-varaq.
9. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 174-yig'majild, 39-varaq.
10. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 449-yig'majild, 205-varaq.
11. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 4-ro'yxat, 36-yig'majild, 45-varaq.